



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

MUHAMMAD SHAYBONIYXON SHAYBONIYLARNING MOVAROUNNAHRDA HOKIMYATINING O`RNATILISHI

Hamroyev Xumoin Toshpo`latovich

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
tarix fakulteti 4 bosqich talabasi sirtqi 402guruh

Anotatsiya

Ushbu tezisda O`rta Osiyo tarixining asosiy arbobi Muhammad Shayboniyxon hayoti haqidadir . XVI asrda Muhammad Shayboniyxon O`zbek xonligning yuksalishida hal qiluvchi rol o`ynadi. XVI-asrda Shayboniyxon temuriylarga qarshi yurishlar olib borgan va Shayboniylar sulolasining barpo etilishiga hissa qo`shtan kuchli sarkarda sifatida maydonga chiqadi.

Kalit so`zlar: Shayboniyxon, Shohbudog‘, Abulkayurxon, Dashti Qipchoq , Shohbaxt, Movarounnahr.

Muhammad Shayboniy (Shayboniyxon) (1451-yil, O`zbek xonligi — 1510-yil 12-dekabr, Marv) — davlat arbobi, sarkarda va o`zbek shoiri. Hazrati imom uz-Zamon xalifat ur-Rahmon (zamona imomi va xalifasi) unvoniga erishgan. Movarounnahrda Shayboniylar hukmronligini o`rnatgan. Uning haqiqiy ismi V. V. Bartoldning fikriga ko`ra — Shohbaxt Muhammad, boshqa: R. G. Mukminova, V. P. Yudin va Edvard Allworth kabi tadqiqotchilar fikrlariga ko`ra esa— Abulfath Muhammad Shayboniyxon bo`lgan. Shayboniy — she’riy taxallusidir.¹ U asos solgan sulola tarixda Shayboniylar nomi bilan tanilgan, ammo bu sulola vakillaridan hech biri Muhammad Shayboniy avlodni bo`lmagan ² .O`zbek ulusi hukmdori Abulkayrxonning (1428—1468) o’n bir o`g`li bo`lib, ulardan biri Shayboniyxonning otasi Shohbudog‘ bo`lgan. Shayboniyxonning onasining ismi Oq Qo`zi biyim bo`lgan³.

Tarixchi Kamoliddin Binoiying yozishicha, Shohbudog‘ sulton to`ng`ich o`g`liga Sulton Muhammad Shayboniy ismini qo`ygan, taxallusi esa „Shohbaxt“ bo`lgan

¹ ЭСБЕ:Шейбани 1903, с. 371-373

² Биографический словарь:Шейбани (Шах-Бахт Мухаммед) 2000

³ „КАМАЛ-АД-ДИН АЛИ БИНАИ->ШАЙБАНИ-НАМЕ->ТЕКСТ“. 2012-yil 30-aprelda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 16.02.2024



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Manbalarga ko‘ra, Shayboniyxonning nasabnomasi quyidagicha: Chingizzon o‘g‘li Jo‘chixon, Jo‘chixon o‘g‘li Shaybon, Shaybon o‘g‘li Baniyl Bahodur, Baniyl Bahodur o‘g‘li Yis Buka, Yis Buka o‘g‘li Jochi Bukaxon, Jochi Bukaxon o‘g‘li Shohibekxon, Shohibekxon o‘g‘li Abdulo‘g‘lon, Abdulo‘g‘lon o‘g‘li Mingtemurxon, Mingtemurxon o‘g‘li Fuladxon, Fuladxon o‘g‘li Ibrohimo‘g‘lon, Ibrohimo‘g‘lon o‘g‘li Davlatshayx o‘g‘lon, Davlatshayxo‘g‘lon o‘g‘li Abulkayrxon, Abulkayrxon o‘g‘li Shohbudog‘xon, Shohbudog‘xon o‘g‘li Abulfath Muhammad Shayboniyxon bo‘lgan⁴. Qizig‘i shundaki, „Tavorixi Guzidayi Nusratnoma“ da Shayboniyxon Mingtemur bobosining xotini Ismoil Somoni avlodidan bo‘lgan Jandibekning qizi ekanligi qayd etilgan⁵. Shayboniyxonning otasi Shohbudog‘xon o‘qimishli odam bo‘lib, uning buyrug‘i bilan fors tilidagi asarlarni turkiy tilga tarjima qildirgan. Otasining erta vafotidan so‘ng, bobosining qaramog‘ida qolgan. Ukasi Sulton Muhammad bilan birga Boyshayx otalig‘ida voyaga yetgan. Muhammad Shayboniy 1480-yillarda Abulkayrxon vafotidan so‘ng Dashti Qipchoq asosiy hududida o‘z hukmronligini o‘rnatmoqchi bo‘lgan. U 1490-yillardan o‘zaro kurashlar va ichki nizolar tufayli tobora zaiflashib borayotgan Temuriylar hududi bo‘lgan Movarounnahrda ham o‘z hukmronligini o‘rnatish uchun harakat boshlagan. XV asr oxiri — XVI asr boshlarida Movarounnahrga qilgan yurishlari natijasida hokimiyat boshqaruvi uning qo‘liga o‘tgan.

Muhammad Shayboniy Turkistonning Sig‘noq, Sabron, Yassi shaharlarini ham o‘z qo‘l ostiga kiritgan. 1504-yil Hisor, Qunduz, Badaxshon, Balx, 1505-yilda Xorazm, 1507-yilda Hirot ham Muhammad Shayboniy qo‘l ostiga o‘tgan. Keyinroq Eronning Mashhad va Tus shaharlarini ham egallagan. 1510-yilda Marv yaqinidagi Mahmudobod qishlog‘ida Safaviylar shohi Ismoil I Safaviyning 70 ming kishilik askari bilan Muhammad Shayboniy qo‘smini o‘rtasidagi jangda uning qo‘sminlari mag‘lubiyatga uchragan va xonning o‘zi ham halok bo‘lgan. Uning bosh siz tanasi Samarqanddagi Baland sufaga dafn qilingan. Baland sufa Registon maydonida Tillakori va Sherdor madrasalari o‘rtasidagi burchakda joylashgan bo‘lib, bu yerga keyinchalik boshqa Shayboniylar ham dafn etilgan. Keyinchalik Shayboniylar daxmasi deb nomlangan.

⁴ Материалы по истории казахских ханств XV—XVIII веков. (Извлечения из персидских и тюркских сочинений). Алма-Ата: Наука. 1969. С. 390

⁵ История Казахстана в персидских источниках. Т.5. Алматы: Дайк-Пресс, 2007. С. 376



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Shayboniyxon chiqargan tangalarda u olgan unvonlar: „Eng buyuk sulton, rahmdil [Allohnning] podshohi, din himoyachisi“; „O‘z davrining imomi, rahmdil [Allohnning] hokimi Abulfath“. Yozuvlar har-xil bo‘lib, ikkinchisida ancha aniqroq, teokratik fikr ifodalangan va sarlavhada Shayboniyxon o‘z davrining imomi“ ekanligi ta’kidlangan.⁶ Shayboniyxon eroniylar va turkiylarni milliy asosda ajratmagan, balki payg‘ambarning „hamma musulmonlar birodardir“ degan hadislariga amal qilgan⁷. Nufuzli diniy arboblardan biri, asli yamanlik amir Sayyid Shamsiddin Abdulloh al-Arabi al-Yamaniy al-Hadramautiy (Mir-Arab nomi bilan mashhur) Shayboniyxonning homiyligidan panoh topgan, devon majlislarida doimiy ishtirok etgan va uning yurishlarida xonga hamrohlik qilgan.⁸ Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Muhammad Shayboniyxon O‘rta Osiyo tarixining murakkab gobelenlarida markaziy shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Uning hayoti va merosi harbiy qudrat, siyosiy donolik va madaniy dinamizmning murakkab o‘zaro ta’sirini o‘zida mujassam etgan. Shayboniyxon merosi uning O‘rta Osiyoga ko‘p qirrali ta’siridan dalolat beradi. Uning harbiy zabtlari, siyosiy ziyrakligi va madaniy hissalari birgalikda mintaqadagi tarixni shakllantirgan. Uning hukmronligining abadiy ahamiyati butun umri davomida davom etib, keyingi avlodlarga ta’sir qilib, Markaziy Osioning madaniy, siyosiy va harbiy manzaralarida iz qoldirdi. Shayboniyxon hikoyasini chuqurroq o‘rganish orqali biz Markaziy Osion hal qiluvchi davrda shakllantirgan kuchlar haqida chuqurroq tushunchaga ega bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Norik B.V. Rol’ shibanidskikh pravitely v literaturnoy zhizni Maverannakhra XVI v. // Rakhmat-name: Sb. statey k 70-letiyu R. R. Rakhimova. SPb.: MAE RAN, 2008.
2. A.Ibrohimov. Bizkim, o‘zbeklar... -T.: Sharq, 1999.
3. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. — T.: O‘qituvchi, 1994

⁶ Давидович Е. А. Денежная реформа 913/1507-914/1509. Мухаммед-Шейбани-Хана (опыт комплексного источниковедения)// "Восточное историческое источниковедение и специальные исторические дисциплины", М., 1989

⁷ А. А. СЕМЁНОВ К ВОПРОСАМ О ПРОИСХОЖДЕНИИ И СОСТАВЕ УЗБЕКОВ ШЕБАНИ-ХАНА // МАТЕРИАЛЫ ПО ИСТОРИИ ТАДЖИКОВ И УЗБЕКОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ ВИПУСК И С., 1954, с.70

⁸ Фазлаллах ибн Рузбихан Исфахани. Миксман-наме-йи Бухара ("Записки букарского гостя"). Перевод Р. П. Джалиловой. М.: Наука, 1976. С. 78-79.

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

4. История Узбекистана, Т.3. Ташкент, 1993.
5. Бартольд В. В., Сочинения, Т2 (часть 2), М., 1964
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Muhammad_Shayboniy#Adabiyot



E-Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

